# VI. TRANSPORT VA ALOQA

Mustaqillik yillarida transport va kommunikatsiya tizimini strategik rivojlantirish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda yaratilgan samarali transport tizimi tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va boshqa mamlakatlar bilan integratsiyalashuv omilidir.

**Yuk tashish.** 2024-yil yanvar-mart oylarida avtomobil transporti tomonidan 11,6 mln. tonna yuk tashilgan bo‘lib, o‘sish sura’ti 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 102,9 % ni tashkil qildi.

Yuk aylanmasi avtomobil transporti turlari tomonidan 255,5 mln. t-km.ni tashkil etdi va 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 100,3 % ni tashkil qildi.

**Avtomobil transportida yuk tashish va yuk aylanmasi**
*(2024-yilning yanvar-mart holatiga)*

| | ***2024-yil yanvar-mart*** | ***2023-yilning yanvar-mart nisbatan % hisobida*** |
|---|---|---|
| Tashilgan yuk, *mln. t.* | 11,6 | 102,9 |
| Yuk aylanmasi, *mln. t-km* | 255,5 | 100,3 |

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportida yuk aylanmasining o‘sish sur’ati 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 103,3 % ni tashkil etdi va 115,2 mln. t-km.ga yetdi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 76,1 % ni tashkil etdi (2023-yilning yanvar-mart oylarida 101,8 % ni tashki qilgan edi).

Andijon viloyatining shahar va tumanlari kesimida tashilgan yuk bo‘yicha yetakchi o‘rinni Andijon shahri (4 478,9 ming tonna) egalladi. Shu bilan birga, eng yuqori ko‘rsatkichlar Asaka (815,6 ming t) va Andijon (754,4 ming tonna) tumanlarida kuzatildi.

**Shahar va tumanlar kesimida yuk tashish,** *ming tonna*
*(2024-yilning yanvar-mart holatiga)*

| | *Jami tashilgan yuk ming tonna* | *2023-yilning yanvar-martga nisbatan % hisobida* | *jamiga nisbatan ulushi, % hisobida* |
|---|---|---|---|
| **Viloyat bo‘yicha:** | **11 606,4** | **102,9** | **100,0** |
| *shaharlar:* | | | |
| Andijon | 4 478,9 | 104,0 | 38,6 |
| Xonobod | 469,8 | 101,6 | 4,0 |
| *tumanlar:* | | | |
| Oltinko‘l | 483,6 | 102,1 | 4,2 |
| Andijon | 754,4 | 102,9 | 6,5 |
| Baliqchi | 583,8 | 101,5 | 5,0 |
| Bo‘ston | 217,1 | 101,3 | 1,9 |
| Buloqboshi | 286,5 | 101,6 | 2,5 |
| Jalalquduq | 470,7 | 101,8 | 4,1 |
| Izboskan | 459,7 | 101,9 | 4,0 |
| Ulug‘nor | 216,9 | 101,2 | 1,9 |
| Qo‘rg‘ontepa | 637,7 | 102,8 | 5,5 |
| Asaka | 815,6 | 103,3 | 7,0 |
| Marhamat | 334,6 | 102,3 | 2,9 |
| Shahrixon | 521,2 | 102,7 | 4,5 |
| Paxtaobod | 531,8 | 102,5 | 4,6 |
| Xo‘jaobod | 344,1 | 101,7 | 3,0 |

Ko‘rsatilgan yuk tashishda yuqori bo‘lmagan ko‘rsatkichlar Bo‘ston (217,1 ming tonna) va Ulug‘nor (216,9 ming tonna) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Tashilgan yukning umumiy hajmida shahar va tumanlarning ulushi, %** *da*

*(2024-yil yanvar-mart)*




Hududlar bo‘yicha tashilgan yukning yuqori ulushi bo‘yicha yetakchi o‘rinni Andijon (38,6 %) shahri egalladi. Shu bilan birga Asaka (7,0 %) va Andijon (6,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatning yuk aylanmasi hajmida yetakchi o‘rinni Andijon shahri (114 481,3 ming tonna-km) egalladi. Shu bilan birga eng yuqori ko‘rsatkich Asaka (19 431,8 ming tonna-km), Andijon (16 602,8 ming tonna-km) tumanlarida kuzatildi.

**Shahar va tumanlar kesimida yuk aylanmasi,** *ming tonna-km*
*(2024-yilning yanvar-mart holatiga)*

| | *ming tonna-km* | *2023-yilning yanvar-martga nisbatan % hisobida* | *jamiga nisbatan ulushi, % hisobida* |
|---|---|---|---|
| **Viloyat bo‘yicha:** | **255 536,9** | **100,3** | **100,0** |
| *shaharlar:* | | | |
| Andijon | 114 481,3 | 101,2 | 44,8 |
| Xonobod | 8 571,9 | 99,0 | 3,4 |
| *tumanlar:* | | | |
| Oltinko‘l | 9 375,4 | 99,5 | 3,7 |
| Andijon | 16 602,8 | 100,3 | 6,5 |
| Baliqchi | 7 304,0 | 98,9 | 2,9 |
| Bo‘ston | 4 501,4 | 98,2 | 1,8 |
| Buloqboshi | 7 059,3 | 99,0 | 2,8 |
| Jalalquduq | 9 094,6 | 99,2 | 3,6 |
| Izboskan | 6 827,8 | 99,3 | 2,7 |
| Ulug‘nor | 5 246,3 | 98,1 | 2,1 |
| Qo‘rg‘ontepa | 8 931,0 | 100,2 | 3,5 |
| Asaka | 19 431,8 | 100,4 | 7,6 |
| Marhamat | 8 632,5 | 99,7 | 3,4 |
| Shahrixon | 11 216,4 | 100,1 | 4,4 |
| Paxtaobod | 11 194,0 | 99,9 | 4,4 |
| Xo‘jaobod | 7 066,4 | 99,1 | 2,8 |

Ko‘rsatilgan yuk aylanmasidagi yuqori bo‘lmagan tonna-km quyidagi Bo‘ston (4 501,4 ming tonna-km) va Ulug‘nor (5 246,3 ming tonna-km) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Tashilgan yuk aylanmasining umumiy hajmida hududlarning ulushi, %** *da*
*(2024-yil yanvar-mart)*




Hududlar bo'yicha tashilgan yuk aylanmasining yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Andijon (44,8 %) shahri egalladi. Shu bilan birga Asaka (7,6 %) va Andijon (6,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Aholiga, shu jumladan, iqtisodiyotning barcha sohasida faoliyat ko'rsatayotgan ishchi-xizmatchilarga, o'quv muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchi va talabalarga yuqori sifatli transport xizmatini ko'rsatish, avtomobil trasnporti oldida turgan eng muhim masaladir. Bugungi kunda hech bir fuqaro harakatini (bir manzildan boshqa bir manzilga borishni) transportsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

**Yo'lovchi tashish.** 2024-yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportining barcha turlari tomonidan 173,0 mln. kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,0 % ni tashkil etdi. Yo'lovchi tashish aylanmasining ushbu davrda o'sish sur'ati 103,1 % ga yetib 3 206,7 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil qildi.

**Avtomobil transport yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi**

| | *2024-yil yanvar-mart* | *2023-yilning yanvar-mart nisbatan % hisobida* |
|---|---|---|
| **Transportda tashilgan yo'lovchilar,** *mln. kishi* | 173,0 | 101,0 |
| **Yo'lovchi aylanmasi,** *mln. yo'lovchi-km* | 3 206,7 | 103,1 |

Jami avtomobil transportidagi yo'lovchi aylanmasi 2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 103,1 % ga yetdi va 3 206,7 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil qildi.

Viloyatning tuman, shaharlari bo'yicha tashilgan yo'lovchi bo'yicha yetakchi o'rinni Andijon (70 797,7 ming kishi) shahri egalladi. Shu bilan birga, eng yuqori ko'rsatkichlar Asaka (19 029,1 ming kishi), Andijon (10 369,2 ming kishi) tumanlarida kuzatildi.

**Hududlar kesimida yo‘lovchi tashish,** *ming kishi*
*(2024-yil yanvar-mart holatiga)*

| | *ming kishi* | *2023-yilning yanvar-mart nisbatan % hisobida* | *jamiga nisbatan ulushi, % hisobida* |
|---|---|---|---|
| **Viloyat bo‘yicha:** | **173 045,1** | **101,0** | **100,0** |
| *shaharlar:* | | | |
| Andijon | 70 797,7 | 101,8 | 40,9 |
| Xonobod | 4 471,0 | 100,4 | 2,6 |
| *tumanlar:* | | | |
| Oltinko‘l | 5 680,5 | 100,5 | 3,3 |
| Andijon | 10 369,2 | 100,9 | 6,0 |
| Baliqchi | 6 159,8 | 99,9 | 3,6 |
| Bo‘ston | 2 489,6 | 96,9 | 1,4 |
| Buloqboshi | 3 611,3 | 100,4 | 2,1 |
| Jalalquduq | 6 871,7 | 100,3 | 4,0 |
| Izboskan | 6 919,6 | 101,0 | 4,0 |
| Ulug‘nor | 2 669,2 | 97,4 | 1,5 |
| Qo‘rg‘ontepa | 8 778,9 | 100,5 | 5,1 |
| Asaka | 19 029,1 | 101,0 | 11,0 |
| Marhamat | 5 546,7 | 101,2 | 3,2 |
| Shahrixon | 6 905,9 | 100,8 | 4,0 |
| Paxtaobod | 6 554,2 | 100,7 | 3,8 |
| Xo‘jaobod | 6 190,7 | 100,4 | 3,6 |

Ko‘rsatilgan yo‘lovchi tashishda nisbatan uncha yuqori bo‘lmagan ko‘rsatkichlar, Bo‘ston (2 489,6 ming kishi) va Buloqboshi (3 611,3 ming kishi) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Tashilgan yo'lovchining umumiy hajmida hududlarning ulushi, %** *da*

*(2024-yil yanvar-mart)*




Shahar va tumanlar kesimida tashilgan yo'lovchining yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Andijon (40,9 %) shahri egalladi. Shu bilan birga Asaka (11,0 %) va Andijon (6,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatning yo'lovchi aylanmasi hajmida yetakchi o'rinni Andijon shahri (1 320,1 mln. yo'lovchi-km) egalladi. Shu bilan birga eng yuqori ko'rsatkich Asaka (321,4 mln. yo'lovchi-km) va Andijon (192,2 mln. yo'lovchi-km) tumanlarida kuzatildi.

**Shahar va tumanlar kesimida yo‘lovchi aylanmasi,** *mln. yo‘lovchi-km*
*(2024-yil yanvar-mart holatiga)*

| | ***mln yo‘lovchi-km*** | ***2023-yilning yanvar-mart nisbatan % hisobida*** | ***jamiga nisbatan ulushi, % hisobida*** |
|---|---|---|---|
| **Viloyat bo‘yicha:** | **3 206,7** | **101,8** | **100,0** |
| *shaharlar:* | | | |
| Andijon | 1 320,2 | 102,8 | 41,2 |
| Xonobod | 85,0 | 100,4 | 2,7 |
| *tumanlar:* | | | |
| Andijon | 192,9 | 101,7 | 6,0 |
| Asaka | 321,4 | 101,6 | 10,0 |
| Baliqchi | 113,9 | 100,5 | 3,6 |
| Bo‘ston | 46,9 | 100,3 | 1,5 |
| Buloqboshi | 66,2 | 100,4 | 2,1 |
| Jalaquduq | 129,4 | 100,6 | 4,0 |
| Izboskan | 130,4 | 100,7 | 4,1 |
| Qo‘rg‘ontepa | 165,9 | 101,6 | 5,2 |
| Marhamat | 102,6 | 101,5 | 3,2 |
| Oltinko‘l | 105,2 | 100,9 | 3,3 |
| Paxtaobod | 119,9 | 101,3 | 3,7 |
| Ulug‘nor | 84,4 | 99,9 | 2,6 |
| Xo‘jaobod | 101,3 | 100,5 | 3,2 |
| Shahrixon | 121,3 | 101,5 | 3,8 |

Ko‘rsatilgan yo‘lovchi aylanmasidagi uncha yuqori bo‘lmagan yo‘lovchi-km Ulug‘nor (84,4 mln. yo‘lovchi-km) va Buloqboshi (66,2 mln. yo‘lovchi-km) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Tashilgan yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida hududlarning ulushi,** *% da*
*(2024-yil yanvar-mart)*




Shahar va tumanlar kesimida yo'lovchi aylanmasining yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Andijon (41,2 %) shahri egalladi. Shu bilan birga Asaka (10,0 %) va Andijon (6,0 %) tumanlarida kuzatildi.

**Avtomobil transportida yuk tashish, yuk aylanmasi, yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi**
*(2024-yil yanvar-mart oylarida)*



## TATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Umumiy foydalanishdagi avtomobil transporti** – aholini va iqtisodiyotni barcha tarmoqlarining yo‘lovchilar, bagajlar va yuklar, shu jumladan, pochtalarni avtomobillarda tashishga bo‘lgan ehtiyojlarini tijorat asosida ta’minlovchi transport.

**Avtotransport vositalari** – yo‘lovchilar, bagajlar, yuklar tashishga hamda maxsus ishlarni bajarishga mo‘ljallangan avtomobillar, shatakchi-avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar.

**Yo‘lovchi avtomobili** – o‘zining tuzilishi va jihozlanishi jihatidan yo‘lovchilar va bagajlarni tashishga mo‘ljallangan, zarur qulaylik va xavfsizlik bilan ta’minlangan avtomobil.

**Yuk avtomobili** – yuklarni tashishga mo‘ljallangan, qattiq ramali mexanik yo‘l transporti vositasi; yuk avtotransporti vositalari foydalanish xarakteri va konstruktiv xususiyatlaridan kelib chiqqan holda umumiy va ixtisoslashtirilgan vositalarga bo‘linadi.

**Avtobus, mikroavtobus** – yo‘lovchilarni tashishga mo‘ljallangan va haydovchi o‘rnini hisobga olmaganda sakkiztadan ortiq o‘tirish o‘rindig‘iga ega bo‘lgan, qattiq ramali mexanik yo‘l transporti vositasi.

**Yengil avtomobil** – haydovchi o‘rnini hisobga olmaganda, sig‘imi sakkiz kishigacha bo‘lgan yo‘lovchi avtomobili. Yengil avtomobillar soniga pochta tashishga mo‘ljallangan, sanitariya va boshqa maxsus yengil avtomobillar qo‘shilmaydi.

**Yengil avtomobil** – haydovchi o‘rnini hisobga olmaganda, sig‘imi sakkiz kishigacha bo‘lgan yo‘lovchi avtomobili. Yengil avtomobillar soniga pochta tashishga mo‘ljallangan, sanitariya va boshqa maxsus yengil avtomobillar qo‘shilmaydi.

**Yo‘nalishli taksi** – yo‘lovchilar talabiga ko‘ra to‘xtagan holda muntazam yo‘nalishlarda yo‘lovchilar tashish uchun mo‘ljallangan avtotransport vositasi (avtobus yoki yengil avtomobil).

**Yo‘nalishsiz taksi** – yo‘lovchilarning buyurtmanomalariga ko‘ra hisoblagich (taksometr) ko‘rsatkichi bo‘yicha haq to‘lash hisobiga yo‘lovchilarni va ularning bagajini tashishda xizmatlar ko‘rsatadigan avtotransport vositasi.

**Pikap va yengil furgon** – kuzovi yengil avtomobil shassisiga moslashtirilgan, yuk ko‘tarish qobiliyati yuqori bo‘lmagan yuk va yuk-yo‘lovchi avtomobillari.

**Yuk aylanmasi** – transportning yuk tashish bo‘yicha ish hajmi. O‘lchov birligi tonna-kilometr hisoblanadi. Transportning yuk aylanmasi tashilayotgan yukning har bir jo‘natmasi og‘irligini uni tashish masofasiga ko‘paytmasining yig‘indisi orqali aniqlanadi.

**Tashilgan yo‘lovchilar** – ma’lum vaqt davomida avtomobil vositalarida turli qatnov turlari bo‘yicha tashilgan yo‘lovchilar soni (statistik kuzatuv birligi bo‘lib yo‘lovchi-qatnovi hisoblanadi).

**Yo‘lovchi aylanmasi** – transportning yo‘lovchi tashish bo‘yicha ish hajmi. O‘lchov birligi yo‘lovchi-kilometr hisoblanadi. Har bir tashish bo‘yicha yo‘lovchilar sonini tashish masofasiga ko‘paytmasini yig‘indisi orqali aniqlanadi. Qatnov turlari va boshqa belgilar bo‘yicha alohida hisoblanadi.

**Tashish masofasi** – ob’ektni jo‘natish nuqtasidan belgilangan nuqtagacha tashish (transportda tashish) masofasi (kilometrda o‘lchanadi).

**Yuklarni tashishning o‘rtacha masofasi** – o‘rtacha bir tonna yuk tashiladigan masofa. Butun avtotransport bo‘yicha, alohida yuklar va qatnov turlari bo‘yicha yuk aylanmasini (tonna-kilometrda) tashilgan yuklar hajmiga (tonnada) bo‘lish orqali aniqlanadi.

**Yo‘lovchilarni tashishning o‘rtacha masofasi** – o‘rtacha bir yo‘lovchi tashiladigan masofa. U butun avtotransport va qatnov turlari bo‘yicha yo‘lovchi aylanmasini (yo‘lovchi-kilometrda) tashilgan yo‘lovchilar soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

**Umumiy bosib o‘tilgan masofa (kilometr)** – transport vositasining garajga (to‘xtash joyiga) qaytishi va garajdan (to‘xtash joyidan) chiqib ketishi vaqtidagi spidometr ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bir kunlik farqni ifodalaydi. Umumiy bosib o‘tilgan masofa, hisobot davri mobaynida barcha foydalanilayotgan avtomobillarning har kunlik bosib o‘tgan masofalarini yig‘indisi orqali aniqlanadi.

**Shahardagi tashuvlar** – shahar va shaharchalar hududidan chiqmagan holda amalga oshiriladigan tashuvlar.

**Shahar atrofidagi tashuvlar** – shahar va shaharchalar hududi chegarasidan tashqariga ellik kilometr bo‘lgan masofagacha amalga oshiriladigan tashuvlar.

**Shaharlararo tashuvlar** – shahar va shaharchalar hududi chegarasidan tashqariga ellik kilometrdan ko‘proq bo‘lgan masofaga amalga oshiriladigan tashuvlar, shuningdek, masofaning uzunligidan qat’iy nazar, O’zbekiston Respublikasining ikki va undan ortiq viloyatlari hududida amalga oshiriladigan tashuvlar.

Amaldagi narxlarda **aloqa va kommunikatsiya xizmatlarini ishlab chiqarish**, mazkur sohada xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig‘indisi sifatida aniqlanadi.

**Mobil aloqa bilan ta’minlangan abonentlar soni** – mobil aloqa tizimlariga ulangan abonent radiostansiyalar soni.

**Xalqaro axborot uzatish kanallarining o‘tkazish qobiliyati** – bir vaqtning o‘zida uzatilgan yoki qabul qilingan maksimal axborot miqdori bo‘yicha aniqlanadi.